a number of didactic tasks can be solved using the Internet: to form reading skills and abilities using materials from the global network; to improve the writing skills of cadets; to replenish the vocabulary of students; to form a stable motivation to learn a language. In addition, the possibilities of Internet technologies contribute to expanding the horizons of cadets. The possibilities of using Internet resources are huge. The global Internet network creates conditions for obtaining any necessary information located anywhere in the world: regional studies, news from the life of young people, articles from newspapers and magazines, necessary literature, etc. Cadets can take part in tests, quizzes, contests, Olympiads held on the Internet.

The 21st century is the age of informatization, making its own adjustments to the traditional teaching of a foreign language. The Internet and the computer are among those technical means of teaching foreign languages that were not invented specifically for this purpose and primarily perform other functions. However, due to their great capabilities, they attract the attention of practical teachers and methodologists.

REFERENCES:

1. Khashimova, Sh K. "THE TEACHING OF LITERARY DISCIPLINES IS THE MAIN FACTOR AFFECTING EDUCATION." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.6 (2022): 313-316.
2. Hashimova, Sabohat Abdullaevna. "Peculiarities of Making Nouns Using Suffixes in Chinese (On the Example of Suffixes 家 “Jia” and 者 “Zhe”)." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 8.8 (2021): 367-370.
3. Хашимова, Сабохат Абдуллаевна. "ҲОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИ СИФАТЛАРДА КОНВЕРСИЯ ҲОДИСАСИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.2 (2020).
4. Nasirova, Saodat Abdullaevna. "Лексико-Семантический Анализ Общественно–Политических Терминов Древнего Китайского Языка: Система Кадровых Ресурсов." *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities* 17 (2023): 20-30.
5. Nasirova, Saodat. "ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СИСТЕМЕ ОХРАНЫ ТРУДА ЖЕНЩИН (НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА ОПЫТА КИТАЯ В ВОПРОСЕ РЕПРОДУКТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ)." *Oriental Conferences*. Vol. 1. No. 1. ООО «SupportScience», 2023.
6. Nasirova, Saodat A. "POLITICAL INSTITUTIONALIZATION OF ANCIENT CHINA: HISTORICAL ANALYSIS OF THE TERMS OF THE LOCAL POLITICAL SYSTEM OF ANCIENT CHINA." *European International*

- Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.08 (2022): 51-56.
7. Nasirova, S. A. "Religious affairs management system in ancient China (linguistic analysis in Diachronic aspect)." *Builders Of The Future* 2.02 (2022): 288-297.
 8. Shirinova, N. D. "Personal and Professional Upbringing of Learners by Specific Approach to the learning English." *Irrigatsiya va Melioratsiya* 2 (2017): 66-69.
 9. Ширинова, Наргиза. "ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА КУРСАНТЛАРГА ЎҚИШНИ ЎРГАТИШ УСУЛЛАР." *TADQIQOTLAR* 26.1 (2023): 39-45.
 10. Ширинова, Наргиза. "ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ҲАРБИЙ ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИ КУРСАНТЛАРИНИНГ ГАПИРИШ КЎНИКМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ." *Innovative Development in Educational Activities* 2.19 (2023): 281-287.
 11. Shirinova, Nargiza Djabbarovna. "INGLIZ TILI DARSLARIDA KURSANTLARGA LEKSIK MATERIALNI O'RGATISH USULLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.1 (2024): 423-426.
 12. Атаева, Р. Р. "ТИПЫ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ В ТЕКСТЕ РОМАНА АС ПУШКИНА «ЕВГЕНИЙ ОНЕГИН» СРЕДСТВА ЛЮБОВНОГО ЛЕКСИКОНА." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 26 (2022): 642-646.
 13. АТАЕВА, Рануша Рашидовна. "ТИПОЛОГИЯ ПОЛИВЕРШИННЫХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГНЕЗД СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА." *Иностранные языки в Узбекистане* 4 (2018): 29-37.
 14. Атаева, Рануша Рашидовна. "СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ГНЕЗДА." *Ответственный редактор* (2022): 34.
 15. АТАҒЕВА, Ranusha. "ПЛАНИРОВАНИЕ РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ–ОСНОВА УСПЕШНОГО ОБУЧЕНИЯ." *News of UzMU journal* 1.1.3 (2024): 75-79.
 16. Атаева, Р. Р. "Поливершинные словообразовательные гнезда в русском языке. Дисс... д-ра философии (PhD) по филологическим наукам." *Автореф. дисс... доктора философии (PhD).–Ташкент* (2020).
 17. АТАҒЕВА, Ranusha. "ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ КУРСАНТОВ КАК ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ ЗАНЯТИЙ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *News of UzMU journal* 1.1.2. 1 (2024): 77-81.

18. Madiyarovna, Egamberdieva Guzal, et al. "The Role of Folklore in the Development of Russian Literature (On the Example of the Stories of A. Platonov and S. Aflatuni)." *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry* 12.7 (2021).
19. Эгамбердиева, Г. М. "МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЮ МЕТОДА «КРУГЛОГО СТОЛА» НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ." *Journal of new century innovations* 25.3 (2023): 107-109.
20. Egamberdieva, G. M. "O horezmskih skazkah, zapisannyh AN Samojlovichem. POLISH JOURNAL OF SCIENCE. № 36-2 (36)." (2021): 52-54.
21. Egamberdieva, G. M. "Folklore elements in the story of V. Astafyev" Ear on Boganide"." *Text: direct//Young scientist* 5 (2016): 109.
22. Дарвишова, Гулчехра Кенжабаевна. "ШАРЛОТТА БРОНТЕ АСАРЛАРИДА БАДИЙ МАҲОРАТ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 26 (2022): 754-757.
23. Darvishova, Gulchexra Kenjabayevna. "SHARLOTTA BRONTE IJODIDA AYOLNING IJTIMOIIY MAVQEI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.1 (2023): 57-67.
24. Kenjabayevna, Darvishova Gulchehra. "GRAMMATIK MATERIALLARNI TANLASHNING ROLI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 15.1 (2024): 150-154.
25. Mengliyeva, S. "TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH INNOVATIVE METHODS." *Innovative Development in Educational Activities* 3.7 (2024): 76-81.
26. Булычёва, М. Ф. "К ВОПРОСУ О ЭФФЕКТИВНЫХ СТРАТЕГИЯХ КОММУНИКАЦИИ." *Educational Research in Universal Sciences* 2.4 (2023): 535-539.
27. Namozova, D. B., and M. X. Rashidova. "PHONETIC COMPETENCE IN CONDITIONS OF ARTIFICIAL MULTILINGUALISM. Innovative Development in Educational Activities, 2 (19), 301–305." (2023).
28. Намозова, Дилноза Бердимуротовна. "Peculiarities of phonetic competence development in conditions of artificial multilingualism." *инновации в педагогике и психологии* 4.1 (2021).
29. Haydarovna, Rashidova Munavvar, and Namozova Dilnoza Berdimurotovna. "Review of the research on boburology abroad and in Uzbekistan." *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research* 2.09 (2020): 55-60.

30. Rashidova, Munavvar Xaydarovna, and Dilnoza Berdimurotovna Namozova. "DEVELOPING B1 LEVEL EFL LEARNERS'SPEAKING SKILLS THROUGH GAMES." *Innovative Development in Educational Activities* 3.4 (2024): 226-231.
31. Рашидова, Мунаввар Хайдаровна, and Дилноза Бердимуротовна Намозова. "КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ В КОНТЕКСТЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ." *TADQIQOTLAR* 26.1 (2023): 34-38.
32. Рашидова, Мунаввар Хайдаровна. "О некоторых аспектах коммуникативной компетенции." *ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ*: 64.
33. Рашидова, Мунаввар Хайдаровна. "ИСТОРИЯ СКАФФОЛДИНГА И ТЕОРИЯ "ЗОНЫ БЛИЖАЙШЕГО РАЗВИТИЯ". " *Innovative Development in Educational Activities* 2.11 (2023): 487-491.
34. Rashidova, Munavvar Xaydarovna, and Dilnoza Berdimurotovna Namozova. "ELLICITATION-AN EFFECTIVE TECHNIQUE OF TEACHING EFL." *Innovative Development in Educational Activities* 3.6 (2024): 202-207.
35. Рашидова, Мунаввар Хайдаровна, and Дилноза Бердимуротовна Намозова. "ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ И РОЛЬ КОММУНИКАТИВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 11.2 (2023): 76-80.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11187743>

FARG‘ONANING ENG QADIMGI DEHQONCHILIK VA HUNARMANDCHILIK YODGORLIKLARINI TADQIQ QILISH VA UNDA CHUST MADANIYATINING TUTGAN ROLI

Hursanaliyev Nodirbek Raxmatali o‘g‘li

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

nodirbekhursanaliyev@gmail.com. Tel: 93-211-60-77

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Chust tumanida joylashgan ko‘plab tarixiy va arxeologik yodgorliklarni o‘rganish, va bu asnosida to‘plangan yangi bilim va ko‘nikmalar yordamida bu makonning qadimiy va boy tarixga ega ekanligi haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Buonamozor, yerto‘lalar, Dalvarzintepa, Elatan madaniyati, Morguzarsoy, Jabborsoy, Kamarsada, Bob.*

Исследование древнейших земледельческих и ремесленных памятников Ферганы и роли в них чустской культуры

Аннотация: В данной статье представлены сведения о древней и богатой истории этого места с помощью изучения многих исторических и археологических памятников, расположенных на территории Чустского района, и с помощью новых знаний и навыков, полученных при этом.

Ключевые слова: Буонамозор, подвалы, Далварзинтепа, Элатанская культура, Моргузарсой, Джабборсой, Камарсада, Боб.

Research of the oldest agricultural and craft monuments of Ferghana and the role of Chust culture in it

Abstract: This article presents the information about the ancient and rich history of this place with the help of the study of many historical and archaeological monuments located in the Chust district, and with the help of the new knowledge and skills gained during this.

Key words: Buonamozor, cellars, Dalvarzintepa, Elatan culture, Morguzarsoy, Jabborsoy, Kamarsada, Bob.

Ziroatkorlar suv yoqasidagi sifatli yer maydonlarini qadrlaganlar. Chust madaniyati(mil. av. 2 ming yillik oxirgi choragi – 1 ming yillik boshlari) yodgorliklari, asosan, Farg‘ona vodiysining shimoli sharqiy tumanlarida uchraydi. Bu madaniyatga taaluqli yodgorlik 1950- yil toshkentlik arxeologlar M. E. Voronets va V. I.

Sprishevskiyalar tomonidan hozirgi Chust shahri yaqinidan topilgan. Tub yerli aholi hududni o'zlariga qulay tarzda Buvanamozor deya atashadi. 1953–1961 yillarda V. I. Sprishevskiy bu hududlarda doimiy arxeologik ekspeditsiya qidiruv olib borgan. Chust madaniyatining navbatdagi o'rganish ishlari Sankt-Peterburglik mutahassis Y.A.Zadneprovskiy nomi bilan bog'liq. Chust madaniyatining ba'zi manzilgohlarida himoya zonalari tatqiq qilingan. Andijon viloyatiga qarashli Jalaquduq tumanining Dalvarzin vodiysidagi dastlabki shahar hamda markaz bo'lganligi qazuv jarayonlarida isbotlangan.

Bugunga kunga kelib Chust madaniyatidagi turar joylar uch shaklda ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular:

1. Chayla ko'rinishidagi yengil uylar.
2. Yerto'lalar.
3. Paxsa va g'isht uylar.

Ushbu madaniyat sohibkorlari ko'proq, dastlabki sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Chorvachilik, metallarga ishlov berish va ularni eritish, kulolchilik, to'qimachilik bilan shug'ullanishgan. Ovchilik va baliqchilik ham xo'jalikda muhim ahamiyat kasb etgan. Olimlarimiz va mutaxassislar tomonidan olib borilgan arxeologik qazishma qidiruv ishlarida duch kelingan bronza pichoqlar, bigizlar, metall quyishda ishlatilgan tosh qoliplar, to'qimachilik uchun foydalaniladigan suyakdan ishlangan taroq shaklidagi uskunalar hamda ko'plab sopol idishlar buni tasdiqlaydi. Sopol idishlardan naqshinkorlari juda ham ajralib turadi. Qora va jigarrang bo'yoq bilan idishning sirtiga naqshlar berilib, ularda ko'proq geometrik shakllar ko'ga tashlanadi. Ba'zi holatlarda jonzotlardan echki tasvirlari ham ko'p uchraydi.

Chust madaniyati davri odamlari vafot qilganlarni turar joylariga dafn etishgan. Mahsus joylar qabriston sifatida ajratilmagan. Marhumlar bitta-bitta yoki jamoa qilib yon taraflama qilib dafn qilganlar. Bugungi kunda Chust madaniyatining o'rganilishi va yon qo'shnilari bo'lgan Toshkent vohasidagi Burg'uluq (Burganli) madaniyati, Janubiy O'zbekistonning Kuchuktepa madaniyati bilan aloqalari Boqijon Matboboyev tomonidan o'rganilmoqda.

Chust madaniyatini yuzaga keltirgan aholi birinchi chorva bilan shug'ullangan. Keyin o'troq hayot tarziga ko'chgan. Chust madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davriga oid bo'lib, u mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida shakllangan. Olimlar olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning rivojlanish davrini 2 davrga bo'lib ko'rsatadilar.

1. So'nggi bronza davri bo'lib, mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragidan to mil. avv. VIII davom qilgan.
2. Ilk temir davri bo'lib, mil. avv. VIII – VII asrlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kungacha Farg'ona vodiysidan Chust madaniyatga oid 80 dan ortiq yodgorlik topilgan. Shuningdek, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand va

Qashqadaryo hududlaridan ham topilgan. Hozirgacha ularning 10 dan ortiq yodgorliklarida arxeologik qazishmalar o'tkazilgan.

Chust madaniyatining ikkinchi davrida ilk shaharlar vujudga kela boshlagan. Shaharlar ikki qismdan iborat bo'lib, ark va shaxriston ham mudofaa devori bilan o'ralgan. Mudofaa devori qoldiqlari Chust qishlog'ida va Ashkaltepadan topilgan. Chustda xom g'ishtdan ishlangan devorning qalinligi 3 metr, uning balandligi 3,5 metrga teng.

Chust madaniyati mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida Farg'ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati tarkib topganligini ko'rsatadi. Bu madaniyat aholisi O'rta Osiyoning tub yerli axolisi bo'lib, ular jismoniy tuzilishi va antropologik tip jihatdan Yevropa tipiga mansub bo'lgan. Chust madaniyatidan so'ng qadimgi Farg'onada ularning vorislari sifatida Elatan madaniyati shakllandi. Elatan madaniyati ilk temir davriga oid bo'lib, u mil. avv. VII–V asrlarga oiddir. Elatan madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha hududlaridan topilgan. Ulardan Elatan manzilgohida keng ko'lamli qazish ishlari olib borilgan. Ushbu hudud uchburchak shaklida va himoya inshooti bilan ihotalangan. Mudofaa devorlarining bir necha joyida va darvoza burchagida burjlar aniqlangan. Qurilishda paxsa, xom g'isht va guvaladan foydalanganlar.

Farg'ona vodiysida Chust madaniyat qachon paydo bo'ldi, qaysi bir etnik asosda tarkib topdi yoki vodiya biror tomondan kelib joylashib oldimi? Ushbu masalalar atrofida ham arxeolog olimlar orasida aniq bir to'xtamga hozirgacha kelinmagan. Ammo, masalaga mantiqan yondashilsa shunisi aniqki, Chust madaniyati bu zamanga tayyor holda qayerdandir kelib qolmagan. Qadimgi Farg'onaning shimoliy va sharqiy viloyatlarida sersuv buloqlarning ko'pligi, u joylarning unumdor qora tuproqli zamini, qulay ekologik imkoniyatlari, aksincha, tub joyli mahalliy aholining bir qismini shakshubhasiz ziroatchilik bilan shug'ullanishga, o'troq hayot kechirishga olib kelgan. Ana shu asosda Chust madaniyati tarkib topgan. Uning davriy sanasi esa ilmiy adabiyotlarda mil.avv. II ming yillikning oxiri va I-ming yillikning birinchi choragi bilan belgilanib kelindi. Ammo, ushbu sana keyingi yillarda mil.avv. II ming yillikning o'rtalarigacha qadimiylashtirilmogda. Chust madaniyatining eylatan yodgorliklari Dalvarzintepa, Ashqaltepa va Buonamozor ob'yektlarida saqlangan madaniy qatlamlarning qalinligiga qaraganda, Chust madaniyati O'rta Osiyoning shu tipdagi yodgorliklarga nisbatan eng qadimiysidir. Hozirgi kunda Chust madaniyatiga oid yodgorliklar vodiya bo'ylab 80 dan ortiq punktlarda topib o'rganilgan. Bu punktlar esa ko'proq soy bo'ylarida, buloqlar chiqqan joylarda va boshqa suv havzalarida ko'p uchraydi. Ularning ko'pchiligi 1; 1,5; 2; 3 gektarli patriarxal urug' jamoalarining qishloqlarini tashkil etadi. Ularning ichida umumiy maydoni 4,5 ga (Chust makoni), 13 ga (Ashqaltepa) va 25 ga (Dalvarzintepa) keladigan ilk shahar xarobalari ham uchraydi. Chust madaniyati yodgorliklarida 1,5–3 metrgacha qalinlikda madaniy qatlamli ob'yektlar bo'lib, ularning eng yuqori qatlamlarida paxsa va xom g'ishtlardan

tiklangan mudofaa inshootlari ko'zga tashlanadi (Dalvarzintepa, Ashqaltepa, Chust makoni va boshqalar). G'ovasoy hududining tabiiy geografiyasi va o'rganilish tarixi o'tgan asrda tadqiqot obyektiga aylandi. Afsuski, vodiydagi mavjud ko'p sonli arxeologiya yodgorliklarining aksariyati XX asrning 40-yillaridan boshlab qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish ishlari davrida buzilib ketgan. Buning ustiga ularning o'rganilishi ham boshqa tarixiy madaniy o'lkalariga nisbatan kechroq boshlangan. Natijada, tarix fanida Farg'ona vodiysi yuksak rivojlangan sivilizatsiya markazlaridan orqada qolgan chekka o'lka, degan noto'g'ri tasavvurlar paydo bo'ldi. Shunday qarashlar oqibatida qadimgi Farg'ona ilk dehqonchilik madaniyatining asosi hisoblangan, so'nggi bronza davriga mansub Chust madaniyati yodgorliklari mil.avv. VIII-VII asrlarga oid deb, yoki Dalvarzin yodgorligini vodiya o'rganilgan ilk shahar ekanligiga Shubha bilan qaraldi. Haqiqatda esa, Chust madaniyati yodgorliklarining yoshi mil. avv. XII–VII asrlarga tegishli ekanligi va u ikki rivojlanish bosqichiga ega ekanligi aniqlandi. Keltirib o'tilgan malumotlar asosida G'ovasoy hududidagi arxeologik obyektlar muhim ahamiyat kasb etgan. G'ovasoy xududi Namangan viloyatidagi eng yirik soylaridan biri bo'lib, u Chotqol tog' tizmasining janubiy yon bag'ridan boshlanadi. Uzunligi 96 km, Havzasining maydoni esa 657 km². Ohangaron platosida chuqur dara hosil qilib oqadi. G'ova qishlog'i yaqinida daryo suvi ariqkanallarga olinadi va Sirdaryoga yetmasdan tog' oldi tekisliklarida tugaydi. Daryo havzasida (2600–2700 m balandlikda) ikkita ko'l bo'lib oqadi. Daryo suvining bir qismi shu ko'llardan chiqadi¹.

Chust madaniyatida toshdan mehnat qurollari yasash davom etadi. Tosh yorg'uchoqlar, tosh o'g'ircha va tosh keli soplari ko'plab topilgan. Tosh qurollar orasida qumtoshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar yasash alohida diqqatga sazovordir. Dalvarzintepada shunday tosh pichoqlardan 400 tasi topilgan. Suyakdan qurol yasash keng yo'lga qo'yilgan. Suyakdan taroq, moki, bigiz, urchuq va boshqa buyumlar ishlangan. Suyak buyumlar orasida qo'y va echki oshiqlari nihoyatda ko'p. Ularga maxsus chuqurchalar yasab, ularning ichiga bronza quyilgan. Oshiklarning deyarli ko'pchiligi juda silliq, ustki qismi to'qqizil, ularga berilgan pardoz tufayli oshiqlar tovlanib turadi. Bu esa madaniyati aholisi hayotida qumor-oshiq o'yini bo'lganligidan dalolat beradi. Chust madaniyatida hunarmandchilikning keng rivojlangan sohasi kulolchilik edi. Lekin, sopol idishlar ishlab chiqarishda hali kulolchilik dastgohidan foydalanishga o'tilmagan. Idishlar qo'lda yasalgan. Demak, Chust madaniyati aholisi kulolchilik charxini bilmaganlar. Pop-Balandtepa atrofidagi yodgorliklar majmuasi kiradi. Bu guruh Morguzarsoy, Jabborsoy va G'ovasoy oralig'idagi xududni egallaydi. Bu xududiy rayonning yodgorliklari Sirdaryoning o'ng qirg'og'iga joylashgan soy xavzalarini egallaydi. Antik davrlardan to rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan davrga tegishli 15 ta yodgorlik aniqlandi. Ular ilk o'rta asrlar

¹ Bekmirzayev I. G'ovasoy hududidagi yodgorliklar topografiyasi» magistrlik dissertatsiya ishi. – Namangan, 2021. – B. 8.

davrini yirik yodgorliklari Balandtepa va Munchoqtepa atrofida joylashgan. Ushbu xududning markazi shubhasiz Balandtepa (qadimgi Bob) bo'lgan. Bu shahar Ohangaron (Shosh-Choch) vohasidan Qamchiq dovoni orqali o'tganda Farg'ona vodiysiga kirishda birinchi katta aholi maskani hisoblangan.

Farg'ona vodiysi hududida urbanizatsiya jarayonlari quyidagi bosqichda shakllanganligi aniqlandi:

1. Ilk shaharlar davri mill. avv. XII–IV (III) asrlar.
2. Antik davr shaharsozligi mill avv IV – mil. IV asrlar.
3. O'rta asrlar davri shaharsozligi V–XIII asrlar

Buvanamozor 1950-yildan boshlab arxeologlar tomonidan o'rganilgan «Chust madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan. Sprishevskiy, Zadneprovskiy, Voronsev, Ya.G'ulomov, A.Asqarovlar tomonidan o'rganilgan. Chust madaniyatida metall hunarmandchilikgi yaxshi rivojlangan. Tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Masalan, Dalvarzintepadan 1500 ga yaqin tosh qurollari topilgan. Kulolchilik idishlarini qo'lda yasaganlar.

Tarixga «Chust madaniyati nomi bilan» kirgan to'rt ming yillik tarixga ega bo'lgan Chust tumani azaldan mehmondo'st va doimo mehmonlar bilan gavjum bo'lishidan tashqari, ma'rifatli va el ardog'ida bo'lgan aziz va avliyolari bilan nomi chiqqan yurtdir. Darhaqiqat, Chust muqaddas qadamjolar makoni. Ularning har birining tarixi olam - olamdir. Qariyalarning aytishlaricha, yo'li Chustdan o'tadigan o'tliq Mavlonoi Lutfulloh Chustiyning hurmatlari yuzasidan Kamarsadaga yetib kelib otdan tushib, qadamjodan o'tgach otiga minar ekan. Mavlono Lutfulloh Chustiy 1487-yil Chodak qishlog'ida o'sha davrning ziyolilaridan Xoja Fatxulloh oilalarida tug'ilganlar. U kishining yoshligi asosan bilim olish bilan o'tadi. 12-13 yoshlarigacha onalari qo'llarida ta'lim oladilar, 15 yoshgacha Samarqandda madrasada, so'ng Isfarada Shoh Husan Chorkuhiydan yetti yil saboq oladilar, 1509- yilda Shoh Husan Chorkuhiy Marg'ilonga qozi etib tayinlanadilar, 22 yoshli Mavlono Lutfulloh ham ustozlari bilan shu yerga keladilar. Aholining sharoitini yaxshilash maqsadida, So'x soyini tartibga keltirib 360 ta katta kichik ariqqa bo'ladilar, So'x soyi atrofida obod qishloqlar paydo bo'la boshlaydi, shu bilan, hozirgi So'x, Beshariq, Oltiariq tumanlarining paydo bo'lishiga asos soladilar. 1515-yilda Shoh Husan Chorkuhiydan fотиha olib Samarqandga jo'naydilar. Samarqandda Maxdumi A'zam qo'llarida 30 yil tahsil oladilar. U kishini bilimi va odobidan mamnun bo'lgan ustozlari Maxdumi A'zam Samarqandning Dahbed qishlog'ida pirluk maqomini beradilar va 15 kundan so'ng vafot etadilar. Mavlono Lutfulloh Chodakka qaytib maktabdorlik qiladilar, u kishining muridlarining kun sayin ko'payib borishi ba'zi g'animlarga yoqmaydi va orqama - orqa fitnalar uyushtiriladi, hatto suiqasd qilguvchilar ham paydo bo'ladi¹.

¹ Мўминов С. Мавлоно Лутфулло Чустий // Наманган ҳақиқати. – 2017.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anarbayev A. Fargʻonaning qadimgi shaharlari va ularni Markaziy Osiyo tarixida tutgan oʻrni. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, 2021.
2. Баратов С. Р., Баратова С. Варзикда топилган ажойиб брактеат // «Ўзбекистонда ижтимоий фанлар». 1990. №
3. Баратов С. Р. Культура скотоводов Северной Ферганы. – Самаркандь, 1991.
4. Bekmirzayev I. Gʻovasoy hududidagi yodgorliklar topografiyasi» magistrlik dissertatsiya ishi. – Namangan, 2021.
5. Мўминов С. Мавлоно Лутфулло Чустий // Наманган ҳақиқати. – 2017.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11187756>

MULKNI QASDDAN NOBUD QILISH YOKI UNGA ZARAR YETKAZISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA MOHIYATI

Aslbek Fayzullayev

O‘zMU “Huquqiy fanlar”

kafedra izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 12-bobi jamiyatning iqtisodiy negizlari deb nomlanib 65-moddasida iqtisodiyotning negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, barcha turdagi mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan har tomonlama himoya qilinishi ta’minlanishi belgilab qo‘yilgan¹. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazishni jinoiy-huquqiy himoya qilish mexanizmlarni belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 173-moddasi o‘zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi.²

Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazishning **ijtimoiy xavfliligi** shundaki, mulkni nobud qilish yoxud unga zarar yetkazish oqibatida o‘zganing mulkiga moddiy zarar yetkaziladi va natijada mulkdor moddiy qimmatliklardan, o‘zining shaxsiy mulkidan, undan tegishliligicha foydalanishdan mahrum bo‘ladi. Jinoyat **ob’ekti** o‘zganing mulkidir. **Predmeti** moddiy qiymatga ega bo‘lgan ko‘char va ko‘chmas mulklar bo‘lishi mumkin.³

Shu bilan birga, nobud qilinishi yoki zarar yetkazilishi natijasida Jinoyat kodeksining boshqa moddalari bilan javobgarlik nazarda tutilgan predmet va ashyolar ushbu jinoyatning predmeti hisoblanmaydi. Masalan, qasddan o‘rmonni nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, hujjat, shtamp, tamg‘a, muhr va blankalarga zarar yetkazish, temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transporti vositalari yoki yo‘llarini yoxud harbiy mulkni nobud qilish yoki zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar⁴ bo‘yicha aybdor shaxslar qilmishi **JK 198, 227, 263 va 296**-moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Modda dispozitsiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilganidek, aybdorning shaxsiy mulki ushbu jinoyat predmeti bo‘lishi mumkin emas. Aybdor tomonidan jinoyat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

² O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2023-y., 03/23/826/0172-son link: <https://lex.uz/docs/-111453>

³ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. - Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. - 744 b..

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 23-sonli “Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 5.4-bandining 5.4.3-kichik bandi,

izlarini yashirish maqsadida talon-toroj qilingan mulkni nobud qilish tegishli talon-torojlik jinoyatlari tarkibini qamrab oladi va JK 173-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi. Jinoyat **ob'ektiv tomondan** o'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga ancha miqdorda zarar yetkazishda ifodalanadi. Moddiy qimmatliklardan o'z maqsadida foydalanishni nobud qilish sifatida e'tirof etish mumkin emas (masalan, davlat korxonasining fondidan noqonuniy ravishda olingan benzinni ishlatib yuborish). Aybdorning bunday harakatlari, zaruriy belgilar mavjud bo'lganda, talon-toroj qilishni tashkil etishi mumkin. Ob'ektiv tomonining zaruriy belgisi ancha miqdorda zarar yetkazish hisoblanadi. **Ancha miqdordagi zarar** deganda, bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar tushuniladi. Zarar miqdori yetkazilgan moddiy zararining faktik holatidan kelib chiqib belgilanishi lozim. Agar shaxs tomonidan harakat sodir etilishi natijasida faktik jihatdan belgilangandan kam miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, biroq aybdorning niyati ancha miqdorda zarar yetkazilishiga qaratilgan bo'lsa, qilmish aybdorning niyatiga qarab mulkni qasddan nobud qilish yoki zarar yetkazishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Sharhlanayotgan jinoyat moddiy tarkibli bo'lganligi uchun ancha miqdordagi zarar yetkazilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi. Qilmish va kelib chiqqan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash muhim hisoblanadi. Agar mulkni qasddan nobud qilish yoki zarar yetkazish natijasida ushbu jinoyat tarkibini qamrab olmaydigan oqibatlar kelib chiqsa (masalan, jabrlanuvchiga tan jarohati yetkazilsa), qilmish jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak. Jinoyat **sub'ektiv tomondan** qasddan sodir etiladi. Aybdor o'ziga tegishli bo'lmagan mulkni nobud qilish yoki zarar yetkazish huquqqa xilofligini anglab yetadi va mulkdorga yoki mulkning boshqa egasiga ancha miqdorda zarar yetkazilishi mumkinligini ko'ra biladi va shu bilan birga bunday oqibat kelib chiqishini xohlaydi yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi yoxud ular kelib chiqishiga nisbatan beparvo bo'ladi. Mazkur jinoyat maqsadi (to'g'ri qasddan) va motivining mazmuni g'arazli hisoblanmaydi hamda qilmishni boshqa turdagi jinoyatga (masalan, qo'poruvchilikka) aylantiradiganlaridan tashqari har qandayi (bezorilik, o'ch olish, hasad, rashk va hokazo) bo'lishi mumkin. Jinoyatning **sub'ekti** o'n olti yoshga to'lgan aqli raso bo'ladi. Agar mulkni qasddan nobud qilish yoki zarar yetkazish mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, unda uning harakatlari jinoyatlar majmui tariqasida JK 173-moddasi va 205-moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. JK 173-moddasi 2, 3-qismlarida ko'rsatilgan jinoyatning kvalifikatsiya qilingan tarkibi bo'yicha jinoiy javobgarlik o'n to'rt yoshdan kelib chiqadi.¹

JK 173-moddasi 2-qismida quyidagi og'irlashtiruvchi holatlarda jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik ko'zda tutiladi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 17-moddaning ikkinchi qismi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.03.2023-y., 03/23/826/0172-son link: <https://lex.uz/docs/-111453>

- a) millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida;
- b) atrofdagilar uchun xavfli usulda;
- v) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda.

Agar shaxs mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazishni **millatlararo yoki irqiy adovat motivlari bo'yicha** sodir etgan bo'lsa, yoki mulkka zarar yetkazish aybdorning mulk tegishli bo'lgan o'zga shaxs yoxud ulardan biri muayyan bir irqqa, millatga yoki xalqqa tegishliligi to'g'risida sub'ektiv tasavvuri asosida sodir etilsa, mulkni nobud qilish sifatida qaralishi lozim. Aynan shaxsning ko'rsatilgan guruhga tegishliligi va an'analarni amalga oshirishi mulkning nobud qilinishi va unga zarar yetkazilishining asosiy sababi hisoblanadi. Agar aybdor sanab o'tilgan motivlar bo'yicha inson hayotiga, sog'lig'iga qarshi yoki shaxsga qarshi boshqa jinoyatlarni sodir etsa, shu bilan birga jabrlanuvchining mulkiga zarar yetkazib nobud qilsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui tariqasida sharhlanayotgan modda bo'yicha va Jinoyat kodeksining shaxsga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shuni ta'kidlash zarurki, **millatlararo yoki irqiy adovatni** nafaqat shaxsning muayyan millat yoki irqqa tegishliligi bilan, shuningdek, insoniyat faoliyatining turli sohalarida aks etuvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan turli xil madaniyat, ijtimoiy va boshqa guruhlarga (qabila, urug') tegishliligi bilan ham ifodalash mumkin. **Diniy taassublar** – bu shaxsning muayyan guruh, diniy yo'nalish, konfessiya vakillarining norasoligi, cheklanganligi, zararliligi to'g'risidagi ob'ektiv asosga ega bo'lmagan ichki tasavvuri. Odatda, ushbu tasavvurlar diniy fanatizm, diniy g'oyalarni no-to'g'ri tushunish, zarur diniy madaniyatning mavjud emasligi bilan asoslanadi. Ushbu holatlar jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin, biroq ular qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi. O'zga millat, irq yoki xalqning vakili mulkiga g'arazli, rashk va o'ch olish maqsadida tajovuz qilishni JK 173-moddasi 2-qismining "a" bandi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas, aybdorning bunday harakatlari JK 173-moddasi 1-qismi bilan qamrab olinadi.

Shu bilan birga, agar ushbu millatlararo yoki irqiy dushmanlik yoxud diniy qarashlar motivi bo'yicha jinoyatni sodir etishda aybdorda ayni vaqtda mustaqil kvalifikatsiya qilish belgisini tashkil etuvchi boshqa motiv mavjud bo'lganligi ham aniqlanadigan bo'lsa, unda bular kvalifikatsiya qilishda o'z aksini topishi lozim. Masalan, mulkni atrofdagilar uchun xavfli usulda yoki ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda nobud qilish. **Atrofdagilar uchun xavfli usulda** deganda, mol-mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlarni sodir etishda katta tabiiy ofat va vayronalik yuz berishi xavfini keltirib chiqarish va insonlarning qurbon bo'lishi, inson sog'lig'i uchun xavfli holatning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi usullardan foydalanish tushuniladi. Ularga mulkka o't qo'yish, uni portlatish, cho'ktirib yuborish, hayvonlarni zaharlash, transport halokatlarini uyushtirish va hokazo usullarni qo'llash kiradi.

Usul haqiqiy xavf tug'dirishi lozim, aks holda, aybdorning mulkni nobud qilish yoki

unga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlari atrofdagilar uchun xavfli usulda sodir etilgan deb topilishi mumkin emas. Xavf taxminiy yoki yashirin bo‘lmasdan boshqa shaxslarning manfaatlariga zarar yetkazish muayyan holatlarda oshkora bo‘lishi lozim. Shuni ta’kidlash zarurki, sharhlanayotgan jinoyatni sodir etayotib, aybdor, sodir etayotgan harakati bilan ob’ektiv tomondan asoslangan muayyan mulkka zarar yetkazishni hamda jabrlanuvchi va boshqa shaxslarning manfaatlariga zarar yetkazayotganligini anglaganligini aniqlash lozim. Shunga e’tibor berish kerakki, agar jinoyat predmeti shaxsiy mulk hisoblanmasa, unga nisbatan ushbu jinoyatni atrofdagilar uchun xavfli usulda sodir etilishi boshqacha tartibda ko‘rib chiqiladi. Agar o‘zganing mulkini yoqish, portlatish yoki boshqa ijtimoiy xavfli usullar bilan qasddan sodir etilsa, buning natijasida o‘zganing mulkiga zarar yetkazilsa, aybdorning harakatlarini kelib chiqqan oqibatlariga qarab kvalifikatsiya qilish lozim. Agar atrofdagilar uchun xavfli usulda mulkni nobud qilish yoki zarar yetkazishga qaratilgan yoqish, portlatish yoxud boshqa harakatlar natijasida aybdorning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda mulkka zarar yetkazilmasa, qilmish JK 25-moddasi 2-qismi va 173-moddasi 2-qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Boshqa mulkni nobud qilish yoki zarar yetkazish o‘zga shaxslarga xavf tug‘dirmagan holda, ashyo va predmetlarni yoqib yuborish Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida ko‘rsatilgan mulkni qasddan nobud qilganlik yoki zarar yetkazganlik natijasida kelib chiqadigan oqibatning xususiyati va darajasiga qarab kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday holatlarda mulkni atrofdagilar uchun xavfli usulda nobud qilish belgisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazishni alohida kvalifikatsiya qilish belgilari JK 173-moddasi 3-qismida berilgan. Bular:

a) xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsning yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga nisbatan;

b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko‘zlab mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish. Aybdor qilmishini JK 173-moddasi 3-qismining “a” bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki element mavjud bo‘lishi lozim:

- ◆ jinoyat shaxs yoki uning yaqin qarindoshiga nisbatan;
- ◆ shaxs yoki uning yaqin qarindoshi o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan sodir etiladi.

Yaqin qarindoshlar ota-ona, aka-uka va opa-singillar, bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-ukasi va opa-singlisi hisoblanadi. Yaqin qarindosh sifatidagi shaxslar ro‘yxati qonunchilikda aniq belgilangan bo‘lib, ularni kengaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Boshqacha aytganda, ushbu guruhga kirmaydigan boshqa shaxslar va sharhlanayotgan jinoyatning ularga qarshi sodir etilishi ularning yaqin qarindosh deb hisoblanishiga olib kelmaydi. **Xizmat burchi** – bu davlat, xususiy yoki boshqa (nodavlat) belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan va faoliyati qonunchilikka zid kelmaydigan tashkilot va

korxonalar bilan tuzilgan mehnat shartnomasidan kelib chiqqan holda shaxsning o‘z xizmat (mehnat) vazifalari doirasiga kiradigan faoliyati doirasidir¹. **Fuqarolik burchi** – bu fuqaro tomonidan uning zimmasiga qonun bilan maxsus yuklatilgan majburiyatlarning amalga oshirilishi, shuningdek, boshqa ijtimoiy foydali harakatlar sodir etilishi (tayyorlanayotgan jinoyat to‘g‘risida yoxud qidirilayotgan shaxs turgan joy haqida hokimiyat organlariga xabar berganligi)².

JK 173-moddasi 3-qismining “a” bandidagi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ushbu harakatlar shaxsning xizmat yoki jamoat majburiyatlarini bajarish vaqtida yoxud boshqa vaqtda sodir etganligi ahamiyat kasb etmaydi. Jinoiy qilmish uning o‘z majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq ravishda sodir etilganligini aniqlash muhimdir. O‘zining xizmat yoki fuqarolik burchini qonuniy asoslarda bajarayotib, mulkni qasddan nobud qilgan yoki unga zarar yetkazgan shaxsning harakati JK 173-moddasi 3-qismi “a” bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Agar shaxsning harakatlari huquqqa xilof (masalan, xizmat vakolatlarini suiiste‘mol qilish) bo‘lsa, aybdor bunday harakatlarga javob tariqasida jinoyat sodir etsa, aybdorning harakatlarini JK 173-moddasi 3-qismining “a” bandi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Jinoyat jabrlanuvchi o‘z huquqiy harakati asosida xizmat yoki fuqarolik burchini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish maqsadida, ya‘ni jabrlanuvchi o‘z burchini bajarishidan oldin yoki bunday burchni bajarganligi uchun o‘ch olish motivi bilan sodir etiladi.

Aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda jinoyatchi tomonidan jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshi tomonidan xizmat yoki fuqarolik burchlari bajarilayotganligini anglab yetganligiga alohida e‘tibor berish lozim. Agar jabrlanuvchi o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarayotganligi aybdorga ma‘lum bo‘lmasa, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish tariqasida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Qonun aybdor o‘z xizmat yoki fuqarolik burchlarini bajarayotgan shaxsning mulkiga qarshi harakat qilayotganligi va aynan shu munosabat bilan uning mulkiga tajovuz qilayotganligini anglab yetgan deb taxmin qiladi. JK 173-moddasi 3 qismining “a” bandiga ko‘ra jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshi o‘z xizmat yoki ijtimoiy burchlari sohasiga kiruvchi harakatlarni qachon sodir etganligidan va ushbu harakatlarni sodir etgandan so‘ng qancha vaqt o‘tganligidan qat‘i nazar jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. JK 173-moddasi 3-qismining “b” bandida ko‘rsatilgan alohida kvalifikatsiya qilinadigan belgi, oldin sharhlangan belgini so‘zma-so‘z takrorlaydi va ushbu jinoyatga nisbatan hech qanday maxsus o‘ziga xos xususiyatlarga ega emas. **Sharhlanayotgan moddaning 4-qismida** rag‘batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo‘lib, unga muvofiq yetkazilgan moddiy zarar qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

¹ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2004 yil 24 sentabrdagi qarori. 9-band,

² Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2004 yil 24 sentabrdagi qarori. 9-band,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil. O‘zbekiston.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb sayti. link: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/21516-2022#yanvar-dekabr>
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi(2023-yil 28-martgacha o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan.)/ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2023-y., 03/23/826/0172-son link: <https://lex.uz/docs/-111453>
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. - Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. - 744 b..
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari www.sud.uz
6. Fayzullayev A. M. U. O ‘ZGALAR MULKINI TOVLAMACHILIK YO ‘LI BILAN TALON-TOROJ QILISH JINOYATLARI UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM MASALALARI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 11. – C. 110-116.
7. Fayzullayev A. DAVLAT XARIDLARI SOHASIDA SODIR ETILGAN KORRUPSION JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN HUJJATLARINING XORIJIY HUQUQIY TAHLILI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 5. – №. NUU Conference 2. – C. 787-796.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11187765>

УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС, ОПИРАЮЩИЙСЯ НА ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ КАДРОВ

Майрам Азимова

Старший преподаватель, Ферганский медицинский институт общественного здоровья²старший преподаватель, Ферганский государственный университет³преподаватель, Ферганский государственный университет Фергана, Узбекистан
mayram.azimova@mail.ru

Адахам Азимов

Старший преподаватель, Ферганский медицинский институт общественного здоровья²старший преподаватель, Ферганский государственный университет³преподаватель, Ферганский государственный университет Фергана, Узбекистан
adaham.azimov@mail.ru

Азизжон Меликузиев

Старший преподаватель, Ферганский медицинский институт общественного здоровья²старший преподаватель, Ферганский государственный университет³преподаватель, Ферганский государственный университет Фергана, Узбекистан
azizjon.melikuziyev@mail.ru

Мобилизация всех сил и возможностей нашего государства и общества для того, чтобы наша молодежь обладала своим самостоятельным мышлением, очень высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, ни в какой сфере не уступала своим сверстникам из других стран, была всегда счастлива и уверена в своём будущем. (Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев. “Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан”. Т. 2017).

Национальная программа по подготовке кадров ориентирована на формирование нового поколения кадров с высокой общей и профессиональной культурой, творческой и социальной активностью, умением самостоятельно

ориентироваться в общественно-политической жизни, способных ставить и решать задачи на перспективу.

Важное условие для развития Узбекистана является формирование совершенной системы подготовки кадров на основе богатого интеллектуального наследия народа и общечеловеческих ценностей, достижений современной культуры, экономики, науки, техники и технологий.

Идея технологизации образования не столь уж нова. Ещё Ян Амос Коменский стремился найти такой общий порядок обучения, при котором оно осуществлялось бы по единым законам человеческой природы. И тогда, полагал Коменский, «все пойдет вперед не менее ясно, чем идут часы с правильно уравновешенными тяжестями, так же приятно и радостно, как приятно и радостно смотреть на такого рода автомат, и, наконец, с такой верностью, какую только можно достигнуть в подобном искусном инструменте. Для дидактической машины, – писал он, – необходимо отыскать:

- 1) твердо установленные цели;
- 2) средства, точно приспособленные для достижения этих целей;
- 3) твердые правила, как пользоваться этими средствами, чтобы было невозможно не достигнуть цели».

Образовательная технология, как направление сначала педагогической практики, а затем педагогики, сформировалась в США в 30-е годы и охватила к 80-м годам XX века практически все развитые страны, получив признание ЮНЕСКО. За это время произошли эволюционные изменения как в подходах к технологизации обучения, так и к определению самого понятия «образовательная технология».

В настоящее время перевод всего дела обучения и воспитания на рельсы педагогической технологии означает решительный поворот учебной практики от произвольности в построении и реализации педагогического процесса.

- к стройной обоснованности каждого его элемента и этапа (в алгоритмизации процесса обучения – максимальной формализации посредством его расчленения на детально определенные и обоснованные, четко оформленные элементы – способы и средства обучения, коммуникации, информации и управления, складывающиеся в заданную последовательность процедур – Л.Г.);
- нацеленности на объективно диагностируемый конечный результат;
- в придании процессу обучения совершенного, четко налаженного, стройного, уравновешенного характера производственно-технологического процесса, гарантирующего достижение поставленной образовательной цели и получение позитивного результата в данных условиях и за установленное время;

- в полной управляемости образовательного процесса с целью обеспечения его эффективности и оптимизации человеческих возможностей (усилий, времени) и технических ресурсов.

В сложнейшем организме, каким является современное общество, без информационных технологий попросту невозможно наладить эффективное взаимодействие многочисленных управленческих структур, нельзя надлежащим образом повысить скорость выработки и принятия решений и снизить вероятность управленческих ошибок.

Учебный процесс, основывающийся на использование современных интерактивных методов обучения, организуется, учитывая в процесс познания всех студентов группы без исключения. Совместная деятельность означает, что каждый вносит свой особый индивидуальный вклад, в ходе работы идет обмен знаниями, идеями, способами деятельности. Интерактивные методы основаны на принципах взаимодействия, активности обучаемых, опоре на групповой опыт, обязательной обратной связи.

Выбор форм организации учебной работы при проектировании технологий обучения на практическом занятии осуществляется преподавателем-технологом, несомненно, исходя, прежде всего, из их соотношения с целеполаганием, методами обучения и временем, отведенным на изучение темы.

В процессе наблюдения и анализа практического занятия нужно сосредоточить внимание на таких параметрах:

- соответствие темы практической работы содержания учебной программы, определение ее места в системе уроков;
- постановка целей и задач практической работы, их соответствие содержания темы, моделирование дальнейшей учебной деятельности студентов;
- подготовка к практической работе (выделение наиболее значащих знаний, умений и привычек студентов, которые будут использованы при проведении практической работы; отбор содержания дидактического материала, выбор форм и методов выполнения практической работы; подготовка пособий, инструментов, приборов для выполнения работы);
- процесс выполнения практической работы (ознакомление с целью и задачами работы, инструктаж по дальнейшей деятельности, т.е. ознакомление с приемами и средствами выполнения работы; обеспечение всех студентов пособиями, приборами, инструментами для выполнения практической работы; оформление результатов работы; поэтапный контроль и коррекция процесса выполнения задачи);
- результативность выполнения практической работы, умение студентов применять теоретические знания при выполнении практических задач, пользоваться приборами, инструментами, осуществлять промежуточные записи, анализировать и обобщать их, строить заключения. Констатировать, сколько

студентов выполнили, сколько не выполнили работу, характер затруднений; вооружение учеников специальными и обще-учебными умениями и навыками, которые имеют важное, значение для учебной и производственной работы.

Среди разнообразных направлений новых педагогических технологий все большую популярность приобретают личностно-ориентированные технологии обучения. Здесь эффективность доказали такие подходы как обучение в сотрудничестве (cooperative learning). Наиболее интересные варианты этого метода обучения – Student Team Learning (STL, обучение в команде), который может быть использован применительно к любой дисциплине в рамках любой компетенции; метод Ligsaw (в дословном переводе с английского – ажурная пила, машинная ножовка) и модификация этого метода «Пила-2» (Ligsaw-2), предусматривающий работу в группах по 4-5 человек, где, работая над одной и той же задачей, над одним и тем же материалом, члены команды индивидуально получают тему, которую разрабатывают особенно тщательно и становятся в ней экспертом. Проводятся встречи экспертов из разных групп. В конце цикла все учащиеся проходят индивидуальный контрольный срез, который и оценивается. Результаты суммируются. Команда, сумевшая достичь наивысшей суммы баллов, награждается. Также популярны такие варианты метода обучения в сотрудничестве как метод «Учимся вместе» (Learning Together) и метод исследовательской работы в группах.

В соответствии с целостным подходом при разработке и реализации проекта педагогического процесса как системы необходимо стремиться к обеспечению органичного единства всех его компонентов, имея в виду, что изменения в одном из них автоматически вызывают изменения других. Педагогическая технология требует диагностического целеобразования и объективного контроля качества педагогического процесса, направленного на развитие личности студентов в целом.

In the last decade, a new direction of scientific research has appeared. This direction is synergy. Within the framework of synergetics, phenomena occurring in various natural systems such as the formation of spatial-temporal structures or spatio-temporal self-organization are studied in various natural systems, such as physical, chemical, biological, ecological, social.

B. B. Kadomtsev and Yu. A. According to Danilov, G. The term synergetics proposed by Haken, derived from the Greek word (senergina) - help, cooperation, focuses on the compatibility of the interaction of parts in forming a structure as a whole. G. Haken himself defines it as follows: "Synergetics is the study of systems composed of many sub-systems of different natures... we want to see how the interaction of these sub-systems leads to the emergence of spatial, temporal or spatio-temporal structures on a macroscopic scale." The moment of integrity in relation to synergetics S. P. Kurdyumov and G. G. Malinetsky notes: "Synergetics usually works with processes that acquire properties that none of the parts of a whole have."

Due to its interdisciplinarity, synergetics leads to a new constructive dialogue between experts from different academic disciplines. Synergetics is taking important steps towards the synthesis of science-based and humanities. Thus, as long as econometrics, in turn, is considered the result of an interdisciplinary approach to the study of economics and is embodied as a special "combination" of three components:

economic theory, statistics and mathematics, the use of synergistic methods in the process of teaching econometrics is not only possible, but also inevitable.

The role of synergy in education is two-fold. It can be about synergistic approaches to education, about synergistic ways of organizing the education and training process, and about teaching through synergism, synergistic knowledge transfer and dissemination. In the first case, synergetics is manifested as a method of education, and in the second case, as its content. The following synergistic methods of education are distinguished: independent education, non-linear conversation, evocative learning.

Self-organization is one of the important concepts of synergetics. In the educational aspect, this means self-education. It's no secret that good management is self-management. According to Daoist theory, a ruler who rules as little as possible is better. Regarding the system, it can be said that a teacher who teaches as little as possible, or rather gives a lesson, is a good teacher. The main thing is not to transfer knowledge, but to supplement knowledge and to acquire methods of self-learning, which quickly find their place in the branched system of knowledge. Self-organization plays a leading role in the process of teaching econometrics, because the number of hours allocated to classroom training in this discipline does not fully allow the student to master the required amount of material if he does not actively work independently.

The paradigm of self-organization or the synergetic paradigm brings forth a new interaction of man with nature. It also causes a person to establish a new relationship with himself and with other people. The nonlinear situation, the situation of bifurcation of evolutionary paths, or the instability of the nonlinear environment, the situation of its sensitivity to small influences is related to the uncertainty and possibility of selection. Making the choice of the next path, the subject is directed to one of the personal paths of the evolution of the complex system with which he enters the relationship, as well as to his valued advantages. He chooses a more acceptable path for himself. At the same time, it is one of the spectrum of ways determined by the internal properties of this complex system, that is, by one of the ways realized in it. Therefore, synergetics can be seen as an optimistic way of managing a non-linear (undisciplined, chaotic) situation.

A situation of non-linear (chaotic, undisciplined) communication arises during the study of practical methods of mathematics and statistics in economics. Economics is a complex, dynamic, multifaceted and evolving subject, which is why it is difficult to study. Both society and the public system change over time, laws change, technological innovations occur, so it is not easy to find invariants in this system. One of the practical tasks of econometrics is the construction of multivariate scenario

calculations for forecasting and analysis of the development of economic systems, which requires that it is reasonable to use synergetic methods in the educational process. From a synergistic point of view, the educational procedure, the student's relationship with the teacher, and the teacher's relationship with the student are shown as follows. This is not the transfer of knowledge from one head to another, the publicizing of ready-made truths, and not pulling. It is a non-linear (chaotic, undisciplined) situation of falling into a self-agreed tempo world as a result of open communication, direct and feedback, joint learning adventure, problem solving. The latter means that due to joint activity in such a situation, the teacher and the student begin to work at the same speed, live at the same pace..

The main problem is how to manage, how to give impetus to one of the paths of personal and acceptable development for a person with a small resonant influence, how to ensure self-directed and self-sustaining development. The problem is again how to curb chaos (the student's unorganized and spontaneous aspirations), not to repel it, but to give it a creative tone, turn it into a field, and give birth to sparks of innovation. A synergistic approach to learning consists of motivational or cooperative learning, self-awareness, or learning to collaborate with oneself and others. There are specific configurations of knowing, learning, and living situations. In order to act more effectively, it is necessary to act at the right time and in the right place. This idea does not lose its meaning in solving the problems of teaching any discipline, including econometrics. In the case of a synergistic approach, we are talking about resonant, topologically correct effects

Judging from the above-mentioned opinion, the use of the synergistic approach as a priority approach in the process of teaching econometrics is considered relevant and justified.

So, synergistics is a set of scientific views based on the recognition of the self-organization of the world, the eternal sequence of events in space and time, their interrelationship, and their existence based on the causal connections of certain systems. There are those who say that this doctrine is formed on the basis of dialectics and complements it with a complex of scientific views. Contrary to them, there are also those who believe that dialectics is no longer necessary, it should be replaced by synergistics.

LIST OF REFERENCES USED:

1. Юцявичене П. А. Теория и практика модульного обучения / П. А. Юцявичене. - Каунас: Швиеса, 1989. - 271 с.
2. Шермухамедова Н.А. “Фалсафа ва методологияси”- Университет, 2005.
3. Назаров Қ.Н. “Билиш фалсафаси” Т.: Университет, 2005.
4. Равшанова М. М. MATHEMATICAL METHODS IN ECONOMETRICS AS A TOOL FOR ANALYSIS AND RESEARCH OF SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS //Экономика и социум. – 2021. – №. 5-2. – С. 1036-1038.
5. Равшанова М. М. MATHEMATICAL METHODS IN ECONOMETRICS AS A TOOL FOR ANALYSIS AND RESEARCH OF SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS //Экономика и социум. – 2021. – №. 5-2. – С. 1036-1038.
6. Nabiev O. A. FOREIGN EXPERIENCE OF REGULATION OF UNCERTAIN POPULATION EMPLOYMENT //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – С. 530-535.
7. Maxmanazarovna, Ravshanova Muhayyo. "ECONOMETRIC MODELS, THE ESSENCE OF THEIR USE AND THE NEED FOR ECONOMETRIC ANALYSIS." *Intent Research Scientific Journal* 2.6 (2023): 5-9.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11206652>

ЁШЛАРДА КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ (АХМАД ДОНИШ ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИ МИСОЛИДА)

Милтиқбоев Бобур Зокирович

Сирдарё вилояти Гулистон туманидаги 14-умумтаълим мактаби
тарих фани ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада XIX асрда яшаб ижод этган машҳур аллома Аҳмад Донишининг фалсафий мероси акс этган. Унинг жамият ҳаётига креатив ёндашув масалалари кўп соҳалар билан жиддий шугулланганлиги асосида ёритиб берилганлиги диққатга сазовор.

Таянч иборалар: креатив ёндашув, фанлараро боғлиқлик, инсон, табиат, жамият ўртасидаги ўзаро алоқадорлик, жамият ҳаётига диний-ахлоқий жиҳатдан ёндашув ва бошқалар.

Аннотация: В данной статье отражено философское наследие известного ученого Ахмеда Дониша, жившего и творившего в XIX веке. Примечательно, что вопросы его творческого подхода к жизни общества освещаются на основе его серьезной вовлеченности во многие сферы.

Ключевые слова: творческий подход, междисциплинарность, взаимосвязь человека, природы, общества, религиозно-этический подход к общественной жизни и др.

Abstract: This article reflects the philosophical legacy of the famous scholar Ahmed Donish, who lived and worked in the 19th century. It is noteworthy that the issues of his creative approach to the life of society are covered based on his serious involvement in many areas.

Key words: creative approach, interdisciplinarity, interrelationship between man, nature, society, religious-ethical approach to community life, etc.

Бугунги кунда ёшларни ижодий-креатив қобилиятга ўргатиш, бунинг учун турли усул ва воситалардан фойдаланиш жадал амалга ошириб келинмоқда. Бу жараёнда аждодлар мероси, улар томонидан яратилган илмий-фалсафий ғояларнинг аҳамияти ва ўрни ҳам эътибордан четда қолмаётганлиги диққатга сазовор.

Бу ўринда XIX асрда яшаб ижод этган Аҳмад Донишнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари ва улардан фойдаланиш жуда муҳим. Негаки, Аҳмад Маҳдум ибн Носир (1827 — 1897 йй) — Марказий Осиёнинг йирик адиби, XIX-асрнинг буюк мутафаккири, шоир, мусаввир, машҳур хаттот, меъмор ва атоқли олим. Туркистон маърифати асосчиларидан бири. Марказий Осиёдаги бутун маориф ҳаракатининг етакчиларидан. Боши катта бўлгани ва кўпгина соҳаларда билимли бўлганлиги сабабли ҳам замондошлари уни Аҳмади Калла деб аташган. Ўз навбатида Аҳмад Дониш ҳар бир воқеликка ижодий-креатив ёндашув асосида мулоҳаза билдирганлиги сабабли ҳам унинг ижтимоий-фалсафий қарашлари ўз даврида ҳам бугунги кунда ҳам ўрганилишга арзийди.

Хусусан, Садриддин Айний ва замондошларининг кўпгина асарларида у юқори мартабали руҳонийнинг ўғли номи билан тилга олинади. Бу эпитет давлат аппаратида маъмурий ишлар билан шуғулланувчи олимлар номига шахснинг билимини эътироф этиш ифодаси сифатида ҳам қўшилган.

Тожиқ маърифатпарварларининг фалсафий ва ижтимоий-сиёсий қарашларини ўрганишга А.М.Богоутдинов {1, 264-308 с.} ўзининг айрим асарларида маърифатпарварлар ҳаёти ва фаолиятини таҳлил қилиб, XIX-асрнинг иккинчи ярми — XX аср бошларидаги Ўрта Осиё халқининг энг буюк мутафаккири ва атоқли маърифатчиси Аҳмад Дониш ҳақида ижобий фикрларни ёзади. З.Ш.Раджабов {2, 1976 г.} нинг илмий ижодий ишлари ҳам Аҳмад Дониш серқирра ижодини ўрганишда муҳим рол ўйнайди.

Аҳмад Дониш Носир исмли камбағал, саводсиз кишининг оиласида туғилган. У бошланғич таълимни уйда, маҳаллий қизларни ўқиш ва ёзишни ўргатиш учун хусусий мактаб ташкил этган онасидан олган. Кейинроқ отаси ўғли Қуръон ўқувчиси бўлсин деб уни китобхонлар мактабига берди. Бироқ, йигитга бундай машғулот ёқмади ва тез орада у ўз хоҳиши билан ушбу таълим муассасасини тарк этди. Кейин отаси ўғли ўз даврига хос бўлган машҳур илмларини ўрганиши, келажакда оиласини боқиш учун қандайдир мансаб ёки мартаба олиши учун Аҳмадни мадрасага жойлаштиради. Бу ерда эса илм-фан ва билимлар дастури Аҳмад ибн Носирнинг изланувчан ижодий тафаккури даражасига мос келмасди. Мадрасадаги таълим дастури доирасида чекланиб қолмай, Шарқнинг буюк алломалари китоблари асосида табиий фанлар, математика, астрология, астрономия, табиатшунослик, фалсафа, тарих ва адабиёт билан мустақил шуғуллана бошлади. Аҳмад Дониш болалигидан ҳусни хати яхши бўлиб, расм чизишга уста эди. Мадрасада ўқиган йилларида бу қобилиятларини ривожлантириб, у нафақат илмий билимлари билан ном чиқарди, балки истеъдодли хаттот ва мусаввир сифатида ҳам машҳур бўлди.

Мадрасада ўқишнинг йилларида хаттотлик ва наққошлик санъати алломанинг рўзгор тебратишида муҳим роль ўйнади. Мадрасани тугатгач, устозлардан бирининг тавсияси билан амир саройига меъмор ва чизмачи бўлиб ишга юборилади. Кейинчалик Аҳмад Донишнинг ўзи таъкидлаганидек, амирлик ҳукмдорлари ва юқори мартабали амалдорларда бундай имкониятлар етарли даражада бўлмаган. Бунинг учун штатда махсус меъморларни ушлаб туриш керак эди. Шу сабабли, Дания у ерда асосан китоблар ва рисоалар ёзишмалари билан шуғулланган, расмий иш юритган. Бу йилларда у энг аввало амир давраларида катта аҳамият берилган мунажжимлик билан шуғулланган.

Натижада 1857-йилда амир Носрулло Петербургга вакиллик делегациясини юбориб, унинг буйруғи билан Аҳмад Дониш котиб сифатида делегацияга киритилади. Бундан ташқари, амир Насрулло Аҳмад Дониш зиммасига Россиядаги ижтимоий-сиёсий вазиятни имкон қадар чуқур ва ҳар томонлама ўрганиш ва ўз кузатишлари натижаларини амирга шахсан маълум қилиши ҳақида топшириқ беради. Россияга саёҳат ва ўша даврда жаҳон маданияти ва иқтисодиётининг машҳур марказларидан бири бўлган Санкт-Петербург билан танишиш Донишнинг билим доирасини янада кенгайтди. Унинг дунёқарашига жиддий таъсир кўрсатди. Аҳмад Дониш илм-фан ривожланган жамиятнинг таълим ва маданияти қай даражага кўтарилишини ўз кўзи билан кўрди. XIX асрнинг иккинчи ярмида Бухорода ҳукмрон бўлган феодал ҳаёт ва ўрта асрлар муҳити мутафаккир наздида жаҳолат ва қоронғулик сифатида намоён бўлди.

Аҳмад Дониш ижоди ўз даврининг кўп соҳаларини қамраб олиб, педагог сифатида замонавий фанларнинг ва соҳаларнинг бир-бирига боғлиқлик ва ўзаро алоқадорлик жиҳатларини ҳам таҳлил этган. Буни биз алломанинг жамият ижтимоий ҳаётида муҳим ўрин эгаллаган маънавият, маърифат, ахлоқ ва дин масалалари каби инсон табиат ва жамият ўртасидаги долзарб масалаларнинг ижтимоий ҳуқуқий асослари ва уларнинг ечимларини кўрсатиб берганлигида англашимиз мумкин [2, 1976 г.].

Унинг бошқаларга нисбатан ҳар жабҳага ўзига хос ёндашуви амирни ҳам диққатини тортади. Ижтимоий ҳаётга кўп ёқлама ёндашув Аҳмад Дониш фалсафий мероси асосида ёшлар онгида креатив ёндашув шаклланишига хизмат қилади. Шу билан бир қаторда, юртимизда маърифатпарварлик доирасида шаклланган умуминсоний кадрлар, инсоний одоб-ахлоқ мезонлари, инсонпарварлик ва тинчликпарварлик ғояларидан ёш авлодни ватанга муҳаббат, буюк аждодларга эҳтиром руҳида тарбиялашда, бузғунчи ақидапараст ва диний-экстремистик ғояларга қарши туришда самарали фойдаланишда долзарб аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Богоутдинов А.М. Избранные произведения. - Душанбе: Дониш, 1980; Ҷо же. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа// Вопр. философии. --• 1961. - № 3. •— 126-132 с; Ҷо же. Очерки по истории таджикской философии: - Душанбе, 1, 1961. - 264-308 с.
2. Раджабов З.Ш. Выдающийся просветитель таджикского народа Ахмад Дониш. - Сталинабад, 1961; Ҷо же. Из истории общественно-политической ‘ мысли таджикского народа во второй половине XIX и начале XX в. - Сталинабад, 1957; Ҷо же. О «Политическом трактате» Ахмада Дониша. - Душанбе, 1976.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11206655>

UO‘K 373.1

TA'LIM - O'ZLIKNI ANGLASH VA O'Z-O'ZINI BOSHQARISHGA O'RGATISHNING ASOSIY MANBAI

Q.B.Djo'rayev

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

gambaralidjorayev@gmail.com

Annotatsiya: o'smir yoshdagi o'quvchilarga ish bilan so'z, ezgu maqsadlar va g'ayri axloqiy xatti-harakatlar o'rtasidagi farq tushuntiriladi, hajv ostiga olinadi yoki tanqid qilinadi, xudbinlik va dimog'dorlikning har qanday ko'rinishi ochib tashlanadi.

Kalit so'z: o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, o'smir, omil, do'stlik.

УДК373.1

ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ - ГЛАВНЫЙ ИСТОЧНИК САМОСОЗНАНИЯ И САМОУПРАВЛЕНИЯ

Джураев К.Б

Кандидат педагогических наук, доцент

gambaralidjorayev@gmail.com

Аннотация: Студентам-подросткам объясняется разница между словом и делом, благими намерениями и аморальным поведением, высмеиваются или критикуются, разоблачаются любые формы эгоизма и высокомерия.

Ключевые слова: самосознание, самоуправление, юность, фактор, дружба, товарищество.

UDC373.1

THE LEARNING PROCESS IS THE MAIN SOURCE OF SELF- AWARENESS AND SELF-MANAGEMENT

Q.B.Djurayev

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

gambaralidjorayev@gmail.com

Annotation: *Adolescent students are explained the difference between words and deeds, good intentions and immoral behavior, ridiculed or criticized, any form of selfishness and arrogance is exposed.*

Keywords: *self-awareness, self-management, adolescence, factor, friendship, camaraderie.*

Dars jarayoniga har qanday boshqa faoliyat kabi ruhiy faoliyatning muayyan shakllari hosil bo‘ladigan tashkiliy jarayon sifatida qarash lozim. O‘zlikni anglash va o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatishning tarkibiy qismi bo‘lib qolishi uchun o‘quv faoliyatini qanday tashkil qilish kerak?

Maktabda o‘rgatiladigan har bir o‘quv fani o‘zining vositalari va o‘z mohiyatiga mos ravishda butun o‘quv jarayoni uchun umumiy bo‘lgan ma’naviyat tarbiya vazifasini hal qilishga qaratilgan. Maktab o‘quv rejasi, uning dasturlari butun ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ma’naviy dunyoqarashni tarixiy ravishda shakllantirishga qaratilgan izchil tadbirlarni bajarishga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’lim-tarbiya birligiga alohida e’tibor berilgan.

Yangi o‘quv dasturlari va ular asosida yaratilgan va yaratilayotgan darsliklar milliy mafkura, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda ma’naviyat tarbiyasi uchun keng imkoniyatlar ochib berishi zarur. 5-9-sinflarda ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishda tabiat, jamiyat, ularning rivojlanishiga oid qarashlarni shakllantiruvchi fan asoslarini o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. Dunyoqarash faolligi mehnat, hayot, bajarilayotgan faoliyatga munosabatda namoyon bo‘ladi. Mustahkam ilmiy qarashlar va e’tiqodlarga ega bo‘lgan kishilar ularni hayotga tadbiiq qilishga intilishadi. Bunda ma’naviy tarbiyani asosi ijtimoiy gumanitar tsikldagi o‘quv fanlariga tegishli bo‘lib, ular insonlarning hayotiy tajribasini umumlashtiradi.

Alohida o‘quv fanlarini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tushunchalar, bilimlar, qarashlar va e’tiqodlar bilim shaklida taqdim etiladi. O‘quv dasturlarida ilmiy va ma’naviy-axloqiy tizimlar uyg‘unlashtirilishi zarur.

Agar dasturda bilimlar tizimi aniq va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda aks etsa, ma’naviy-axloqiy tushunchalar tizimini bilimlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish lozim. Bunda o‘quvchilarning aqliy, hissiy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatish uchun uchining ijtimoiy tajribasiga tayanish lozim bo‘ladi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar biz tomonimizdan olib borilgan tajriba va ilg‘or maktablar amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, dars jarayonida o‘zlikni anglash va o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish uchun quyidagi shartlar bajarilishi maqsadga muvofiqdir:

a) har bir dars jarayonida o'quvchilar ma'naviy ongining barcha tarkibiy qismlari ma'naviy-axloqiy bilimlar, motivlar va maqsadlar, axloqning muayyan shakllarini faollashtirish rejalashtirilsa;

b) ta'lim mazmuni ma'naviy tushunchalar va axloqiy me'yorlarni o'quv materiali va pedagogik ta'sirlarning uzviy qismi sifatida ochib bersa va ayni paytda shaxsning ijtimoiy yo'nalishi, dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa;

v) ta'lim usullari va mazmuni bilan o'quvchining harakatlarini faollashtirib, ma'naviy axloqiy talablariga javob bermaydigan harakatlar sodir bo'lishini oldi olinsa;

g) o'quv jarayonining barcha omillari, tizimi, ayniqsa, o'qituvchining o'quvchiga munosabati, jamoaning shaxsga ko'rsatayotgan ta'sirlari, o'qishning shaxsiy, sub'ektiv maqsadlarini ijtimoiy, ob'ektiv maqsadlarga yaqinlashtiruvchi, uni ob'ektiv mazmun bilan to'ldiruvchi, o'z-o'zini baholashni o'quvchining ob'ektiv holatiga yaqinlashtiruvchi ma'naviy mazmuni, motivlarini rivojlantirilsa;

d) jamoa tuzilishi uning o'quvchi axloqiga, ijtimoiy fikrga, ijtimoiy-psixologik muhitga qo'yadigan talablari muntazam takomillashtirilib borilishi ta'minilsa.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan katta imkoniyatlarga ega. Maktabda o'quvchilar malakali mutaxassislar, o'qituvchilarning har tomonlama, maqsadga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan ta'siriga duch keladi. Bugungi o'quvchining kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi uning qanday o'qiganligi, uning milliy ongi va ruqi hay darajada shiklnligiga bog'liq.

Dars jarayonida o'zlikni anglash va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish uchun bu ko'nikmalarni o'quvchida tarkib toptirish darsning tarbiyaviy maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilishi kerak.

Dars jarayonida o'quvchining aqliy salohiyati, mantiqiy tafakkuri, intellekti rivojlantiriladi, maqsadga yo'naltirilgan ma'naviy tarbiya esa uning hislari, tuyg'ularini rivojlantiradi, degan fikr maktab amaliyotidan chuqur joy olgan. Biroq bu narsa unchalik to'g'ri emas.

Ta'lim hayotiy faoliyatning muayyan shaxsiy-motivli, hissiy irodaviy qirralarini uyg'otadi. Hayotiy faoliyat esa o'zlashtirish jarayonida axloqning motivli, hissiy-irodaviy sohalarini o'ziga singdiradi. O'quvchi o'qituvchining tushuntirishi, hikoyasini diqqat bilan tinglar ekan, jismoniy faollik, sho'xlik qilish odati barham topadi va u yangi holatni boshdan kechiradi. Agar intizomsiz o'quvchi bo'lsa, faol, diqqati jamlangan o'quvchi holatiga tushadi. Uning o'qishga bunday munosabati tashqaridan, zurma-zo'raki tiqishtirilmaydi, aksincha, ichkarida, uning aqliy faoliyati jarayonida tug'iladi.

O'quvchiga singdiriladigan axloqiy sifatlarni rejalashtirish uchun unda faoliyatning ob'ektiv qirralarini ifodalovchi maqsadlarini shakllantirish zarur ekan.

Yuqori axloqni rag‘batlantiruvchi holatlar, kechinmalar, motivlar bo‘lmish o‘quv mehnati natijalariga mas’ullik, jamoa oldidagi or-nomus va burch xislarini, o‘qishning faqat o‘zi uchun emas, atrofdagilar uchun ham ahamiyatli ekanligini anglashni, o‘quv va ijtimoiy faoliyatdan manfaatdorlikni qaror toptirish o‘quv faoliyati maqsadining ikkinchi muhim qismi bo‘lishi hamisha zarur. Bunday motivlar o‘quv faoliyatida amal qilar ekan. Ular o‘quvchi ma’naviy tajribasini boyitadi, o‘zlarining ta’sirini axloq jabhasiga ham ko‘chiradi.

Ma’naviy me’yorlarga mos keluvchi ma’naviy odatlar, axloq me’yorlarini shakllantirish ta’lim maqsadi, dars maqsadining muhim qismi bo‘lib qolishi kerak.

Va nihoyat, qo‘llaniladigan pedagogik ta’sir vositalarining muhim shartlari bo‘lgan jamoa holatlarini faollashtirish zarur.

Shuni unutmaslik kerakki, o‘quv-tarbiya jarayonida biz o‘quvchilar orasida ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy ishlarini izchil amalga oshirish kerak, chunki o‘quvchilar bilim va ma’lumot olish bilan o‘z-o‘zidan ma’naviyatli bo‘lib qolmaydi. Shaxs juda o‘tkir aql sohibi bo‘lishi mumkin, biroq ba’zi axloqiy me’yorlarga rioya qilish zarurligini tushunmasligi, o‘zining hissiyotlarini anglab yetmasligi mumkin. Hatto, tabiatan nozik musiqiy tinglash qobiliyatiga ega bo‘lgan odamlar, ijtimoiy vijdon ovozigga, atrofdagilarning quvonchlarayu-tashvishlariga befarq qolishi mumkin. Demak, o‘quv fanlari o‘z-o‘zidan ma’naviy rivojlanishni ta’min eta olmaydi. Ular faqat ma’naviy rivojlanishga yordam beradilar xolos. O‘quvchi shaxsi ma’naviyatini shakllantirish uchun maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy ta’lim-tarbiya va o‘quvchi shaxsining ijtimoiy faoliyati bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOT / REFERENCES

1. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Ответственность образования в предупреждении и преодолении вузов современности. Отв. Ред. А.А.Азизходжаев. –Т.: Академия, 2003. – 94 с.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность сознание личности. –М.: 1975.-304 с.
3. Леонтев А.Н. Проблема развития психики. –М., 1972. -97 с.
4. Лернер. И.Я. Процесс обучения и его закономерности. –М.: Знание, 1980. – 96 с.
5. Махмудова М. Воспитание общественной активности у младших школьников. АКД. –Т.: 1994.
6. Махмутов М.И. Современной урок. Вопросы теории. –М.: «Педагогика», 1981. – 192 с.
7. Мухамеджанова М.П. Формирование научного мировоззрения у старшеклассников в процесс взаимосвязи школы и семьи. АКД. –Т.: 1992.
8. Мунавваров А.К. Педагогические условия повышения эффективности семейного воспитания. «Фан», -Т.: 1989 . -110 с
9. Оконь В.Введение в общую дидактику Мунавваров А.К., Маъмуров М. Япроқ илдиэдан қувват олади. –Т.: «Ўзбекистон», 1990. - 64 бет.
10. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. -Т.: «O‘qituvchi», 1997.
11. Мусурмонова А. Педагогические основы формирования духовной культуры старшекласников. АДД. –Т.: 1993.
12. Михайлов Ф.Т. Загадка человеческого «Я». –М.: 1976. -288 с.
13. Mirenskiy В.А. Oila va o‘smir. –Т.: «O‘qituvchi», 1991. - 48 bet.
14. Munavvarov A.Q Oila pedagogikasi. -Т.: «O‘qituvchi», 1994. -100-101 bet.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11206663>

UO‘K 373.1

O‘QITUVCHINI O‘Z USTIDA ISHLASH TA‘LIM-TARBIYA SAMARADORLIK GAROVIDIR

Q.B.Djo‘rayev

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

gambaralidjorayev@gmail.com

Аннотация: o‘z ustida muvaffaqiyatli ishlash, birinchi navbatda, o‘zini, o‘zining kuchli va zaif qirralarini tushunib yetish, jamoadagi mavqei, o‘rni va ahamiyatini anglab yetish, kelajagini mustaqil belgilay olish, ya‘ni o‘zligini anglashning muayyan darajasini nazarda tutadi.

Калит so‘z: o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘smir, omil, do‘stlik.

УДК 373.1

САМОСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГА - ЗАЛОГ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ

Джураев К.Б.

Кандидат педагогических наук, доцент

gambaralidjorayev@gmail.com

Аннотация: успешная работа над собой, прежде всего, понимание себя, своих сильных и слабых сторон, понимание своей позиции, места и значимости в коллективе, умение самостоятельно определять свое будущее, т.е.

Ключевые слова: самосознание, самоуправление, отрочество, фактор, дружба.

UDC 373.1

THE EDUCATOR’S SELF-IMPROVEMENT IS THE KEY TO EDUCATIONAL EFFECTIVENESS

Q.B.Djurayev

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

qambaralidjorayev@gmail.com

Annotation: *successful work on oneself, first of all, understanding oneself, one's strengths and weaknesses, understanding one's position, place and importance in the team, being able to determine one's future independently, ie a certain level of self-awareness implies*

Keywords: *self-awareness, self-management, adolescence, factor, friendship*

O'z ustida muvaffaqiyatli ishlash, birinchi navbatda, o'zini, o'zining kuchli va zaif qirralarini tushunib yetish, jamoadagi mavqei, o'rni va ahamiyatini anglab yetish, kelajagini mustaqil belgilay olish, ya'ni o'zligini anglashning muayyan darajasini nazarda tutadi.

O'zlikni anglash shaxs va jamiyat hayotida turmush tarzi, jamiyat a'zolari bilan munosabatlarni to'g'ri tashkil qilish, muloqotning turli shakllarida o'z axloqini boshqarishda muhim o'rin tutadi. O'zlikni anglash darajasining yuqori bo'lishi ijtimoiy me'yorlarni bilish va jamiyat a'zolarining ijtimoiy fikrga hurmat bilan qarash atrofdagilarning axloqiy tubanlashuviga to'siq bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari o'zlikni anglash darajasining yuqori bo'lishi g'ayri ijtimoiy individlarning salbiy ta'siridan saqlaydi. Vijdon azobidan qo'rqish, atrofdagilar nazarida o'ziga ishonch va g'ururining poymol qilinishini xohlamaslik, shaxsni noloyiq, axloqsiz xatti-harakatlardan tutib turadi. /ururli, vijdonli inson yolg'onning kishilar va jamiyat uchun naqadar katta kulfat keltirishi mumkinligini yaxshi anglaydi va hech qachon haqiqatga xilof ish qilmaydi. Bunday shaxs jamiyat a'zolari o'z-o'zini hurmat qilishga qodir bo'ladi. Tuban hislar va mayllar quli bo'la olmaydigan insongina shaxs bo'la oladi, jamiyatning ma'naviyatli, ma'rifatli a'zosi bo'lib yetishadi.

O'zlikni anglash ham xuddi ong kabi tarbiya va insonning faol harakati jarayonida muntazam rivojlanib boradi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha: «Inson shaxsining shakllanishi o'zida o'zining uzviy qismi sifatida shaxs ongi va uning o'zligini anglashning shakllanishini mujassamlashtiradi. Bu ongli shaxsning rivojlanish jarayonidir» O'zlikni anglashning shakllanishi shaxs ma'naviy rivojlanishining negizidir. Bu shaxs ongining ijtimoiy yo'nalganligiga bog'liqdir.

O'zlikni anglash bilish hosilasidir. Bilish jarayoni uchun esa shaxsning o'z kechinmalarini ijtimoiy borliq bilan bog'liq ekanligini anglash talab qilinadi. SHunday qilib, o'zlikni anglash ikki tarkibiy qismdan iborat: anglash («men yomonman») va bilish («nima uchun men yomonman va bu nimaga bog'liq»). O'z-o'zini bilish

birdaniga, to'satdan namoyon bo'lmaydi. Inson o'zini bilishga bilimlarni egallash, kishilar bilan muloqot, faoliyat jarayonida o'rganadi. U kishilar xarakteri, ularning axloq motivlarini qanchalik ko'p bilsa, turli hayotiy vaziyatlarda odamlarni qanchalik ko'p kuzatsa, atrofdagilar, tarixiy shaxslar hayoti, badiiy asarlar qahramonlarini qanchalik ko'p o'rgansa, o'zining mohiyatini ham shunchalik teranroq tushunadi.

Shakllanib, rivojlanib boradigan anglash-murakkab hodisadir. Chunki bu yerda bilishning o'ziga xos shakli namoyon bo'ladi: shaxs bilishning ham ob'ekti, ham sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. So'z shaxs xarakterining salbiy qirralarini bartaraf qilish to'g'risida ketganda, o'zlikni anglash kishidan o'ziga qat'iy va ayovsiz munosabatda bo'lishni talab qiladi. Chunonchi, kimlardir ishyoqmaslik odatini yengish uchun o'zini ikki-uch marta ko'proq hajmda ish bajarishga majbur qiladi, o'zini idora qila bilishni tarbiyalash uchun esa ko'ngil ochar tadbirlar, turli mayl, xoyu-havaslardan o'zini tiyishga, xafagarchilik hissini so'ndirishga harakat qiladi.

O'z axloqi mexanizmini tushunib yetish, o'zining har bir xatti-harakati, mayllari mohiyati va oqibatini chuqur anglashi uchun sezgi jismlariga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. Jism yuzasidagi eng mayda zarralar, gullarning eng nafis jilolarini ilg'ab olishga qodir ko'rish qobiliyatiga ham ega bo'lish va ayni paytda o'zining harakatlaridagi qo'pollikni ko'ra olmaslik mumkin. Kishi eng mayin, nafis tovushlarni eshitishga qodir bo'lsa-da, o'zgaralar iztirobi, ularning qalb nolalarini eshita olmasligi mumkin. Demak, sezgi jismlaridan tashqari or-nomus, vijdon, hozirjavoblik, adolat, burch, insoniylik kabi ma'naviy xislatlarni ham tarbiyalash, ya'ni o'zlikni anglashning muayyan darajasiga erishmoq lozimdir. Bunda shaxs shakllanishi jarayonining uzviy qismi bo'lgan o'zlikni anglash yuqoriroq darajaga ko'tariladi. Pedagogik nuqtai nazardan o'zlikni anglash ko'nikmasining rivojlanishi birinchi navbatda, kishi dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini baholash va tahlil usullarini egallab olish demakdir.

O'zlikni anglashning rivojlanishi inson mohiyati qirralarining har tomonlama qamrab olinishi, ularning har birini teran tahlil etishi bilan rivojlanuvchi tarmoq bo'ylab harakat qiladi: bilmaslikdan bilishga, ya'ni shaxs rivojlana borgani, hayotiy tajribasi ortgani sari o'zlikni anglash ko'nikmasining takomillashuvi shiddatliroq va serqirraroq bo'la boradi. SHu sababli o'smirlik yoshi boshlanishi bilan o'z-o'zini bilish tugal holatda namoyon bo'lmaydi, balki bir necha bosqichlardan o'tadi.

O'smirlarda o'zligini anglash darajasini o'rganish, ular o'zligini anglashining o'ziga xos qirralari, zaif bo'g'inlarini aniqlash tarbiya yo'nalishlarini belgilab olish imkonini beradi. SHuningdek, bu shaxs tomonidan axloqiy me'yorlarning anglanish darajasini belgilash, mazkur bosqichda kam rivojlangan xislatlarni aniqlash va shu asosda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash, ayniqsa, zarur ma'naviy xislatlarni

shakllantirish bo'yicha muayyan maqsadga yo'naltirilgan pedagogik tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

O'smirlarning o'zligini anglash darajasini o'rganishning qator metodlari mavjud. Bular: anketa so'rovi yozma ishlar.

Yozma ishlarni quyidagi mavzularda o'tkazish maqsadga muvofiqdir: «Sen kimga o'xshashni xohlarding va nima uchun?», «Sen o'zingda qanday xislatlarni tarbiyalashni xohlaysan?», «Sen o'z do'stingda qanday xislatlarni ko'rishni istaysan?», «Sen nimaga intilayapsan?».

Anketa savollariga javoblar va yozma ishlar boshqa metodlar uyg'unligida shuni ko'rsatdiki, ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha dastlabki qadamlari kattalar, tengdoshlari, aniq timsollarga taqlid qilishdan boshlanar ekan. Odatda, o'quvchilar bu yoshda maktab va uyda maqtov eshitish uchun o'zlarida mehnat va o'quv ko'nikmalarini hosil qilishga intilishadi. Bu ko'proq faoliyatning alohida turlari bilan bog'liq eng oddiy xislatlar va ko'nikmalari: o'z vaqtida o'rindan turish, uydagi eng oddiy foydali ishlarni bajarish, kun tartibiga rioya qilish, o'quv fanlarini o'zlashtirishni yaxshilash kabilar.

Ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilar dastavval o'zlariga ko'ngilsizlik keltiruvchi kamchiliklar(ishyoqmaslik, besaramjonlik, qat'iyatsizlilik, va besabrlik)ni tezroq anglab yetishadi. Bu kamchiliklarni his qilish ularning o'zlari ustida ishlashlarining dastlabki ko'rinishidir. U yoki bu xatti-harakatlar to'g'risida ular alohida xislatlarning tashqaridan namoyon bo'lishiga qarab, ularni chuqur idrok etmay hukm chiqarishadi. SHu sababli kichik yoshdagi o'smirlarda o'z-o'zini tanqid juda zaif rivojlangan, ular ko'proq ota-onalari, kattalar ko'rsatgan kamchiliklarni idrok qilishadi («Onam o'jarsan» deydi, shunaqa bo'lsam kerak).

Ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning javoblarida axloqiy sifatlarni chuqur anglashdan guvohlik beruvchi qirralar hali juda oz. Alohida xislatlarni tarbiyalash esa ularning natijalari tezda his qilinsa, intilishlar namoyon bo'lgandagina muvaffaqiyatli kechishi mumkin. Demak, bu yoshda o'z ustida ishlash yaqin maqsadlarga erishishga qaratilgan, shu bilan bir qatorda tarbiyachining muntazam undab turuvchi nazorati va yordami zarur. Agar ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning o'z ustida ishlash faoliyati yo'naltirilmasa, bu jarayon to'xtab qolishi mumkin. Bu hol amaliyotda yaqqol ko'rinadi.

O'smir yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishida burilish davri birinchi navbatda o'zlikni anglashning shakllanishi bilan bog'liq. Bu davrda bolalikdan kattalar holatiga, g'o'rlikdan balog'atga kabi o'ziga xos o'tish jarayoni yuz beradi. O'smir o'zining axloqi, atrofidaqilar bilan o'zaro munosabati ustida bosh qotira boshlaydigan davr boshlanadi. U o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Ma'naviy idealni izlash, o'z

orzusini amalga oshirishga intilish uning asosiy maqsadiga aylanadi, ilk intim hislar uyg'onadi, shu sababli ular ulg'aygach ularning axloqiy sifatlar doirasi ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarga nisbatan ancha kengayadi. O'smir yoshdagi o'quvchilar shaxsdagi mas'ullik, insoniylik, boshlagan ishni oxiriga yetkazish, bir so'zlilik kabi hislatlarni tushunishlarini namoyon qila boshlaydilar.

«Do'st birinchi navbatda bir so'zli, odil bo'lishi kerak, - deb yozadi Кочонсой tumanidagi 28-maktabning 8-sinf o'quvchisi Aziza, aytishadiki, do'stlar bir-biriga yon berishi, shirin gaplarni gapirishlari kerak. Lekin qanchalik og'ir bo'lmasin hal qiluvchi paytda hamisha haqiqatni gapirish kerak, bo'lmasa qanday do'st bo'lding?».

«Sen qanday salbiy odatlardan qutulishni istaysan?», - degan savolga berilgan javoblardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'smirlar ulg'aygan sari salbiylarga qaraganda ko'proq ijobiy xislatlarni anglab yetishgan, salbiy odatlar sirasiga asosan qaysarlik, ishyoqmaslik, irodasizlik, qiziqqonlik, o'zbilarmonlik kabilarni kiritishgan.

O'smir yoshdagi o'quvchilar hayotiy maqsad, kelajak, kasb, fuqarolik burchi va hokazolar to'g'risida o'ylay boshlaydi. Turli xildagi faoliyat turlariga qiziqish paydo bo'lgani sababli mustaqil ma'lumot olishga bo'lgan extiyoj kuchayib boradi. Ular o'zlarini qiziqtirgan savollarga o'zlari javob axtaradilar, ilmiy-metodik, memuar, badiiy adabiyotlarni o'qiydilar. Intensiv ichki faoliyat kuzatiladi. Natijada o'z hayot yo'lini belgilashga intilish paydo bo'ladi va shu asosda o'z-o'zini takomillashtirishga ongli qadam qo'yadilar. Bu yoshdagi bolalar uchun o'z ustida ishlash, bilim doirasini kengaytirish, faoliyatning asosiy turlari bilan qiziqish kuchayadi. Bilish faoliyati bilan bir qatorda ijtimoiy-axloqiy muammolar ham ko'proq o'rin egallay boshlaydi, mehnat malakalarini egallashga intilish faollashadi.

O'smir yoshdagi o'quvchilar oldilariga yaqin maqsadlar bilan bir qatorda uzoq maqsadlarni ham ham qo'yishadi. Ularning o'zlari ustida ishlash rejalari kasb tanlash, xarakter va ma'naviy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq istiqbolli yo'nalishga asoslangan. Ular o'z axloqlarini faolroq tahlil qiladilar, kuchli va zaif tomonlarini belgilaydilar, qanday xislatlarni rivojlantirib, qaysilardan xalos bo'lish kerakligini anglay boshlaydilar. Bu yoshda idealga bo'lgan intilish juda kuchli bo'ladi, natijada salbiy xislatlarni bartaraf qilish istagi ham kuchayadi. Kamchiliklarni tuzatish kattalar ko'rsatmasi bilangina emas, balki ichki undovlar bilan ham yuz beradi, chunki ular o'z xatti-harakatlarini anglab yetadilar va axloqlarini baholay oladilar. Axloqiy xislatlar mavhum tarzda emas, balki o'zlari qo'llagan holda anglana boshlaydi, ya'ni o'zining shaxs sifatidagi ahamiyati, qiziqishlarini aniq-ravshan tushunish sodir bo'ladi. O'zlikni anglash asta sekin, tadrijiy rivojlana boradi.

O'zlikni anglashning asosiy qismlari va uning mezonlari o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilishdir. Shuning uchun o'zlikni anglashni rivojlantirish birinchi

navbatda o'z axloqi va faoliyatini ob'ektiv, xolis baholash va tahlil qilishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yuqori sinf o'quvchilarida o'zlarining va atrofdagilarning xatti-harakatlarini tanqidiy baholashga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. O'z-o'zini baholash o'z-o'zini tarbiyalashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'z shaxsini to'g'ri baholashni shakllantirish o'z-o'zini tarbiyalash, o'zlikni anglash sari qo'yilgan ilk qadamdir. O'z-o'zini baholash shaxsning hayotdagi o'rnini aks ettiradi, shaxsning vazifasi sifatida axloqqa nisbatan bo'lgan taktikasini belgilaydi va uni hal qilishning tarkibiy qismi deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/ References

1. Munavvarov A.K. Педагогические условия повощения эффективности семейного воспитания. «Фан», -Т.: 1989 . -110 с.
2. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. -Т.: «O'qituvchi», 1994. -100-101 bet.
3. Xasanov T.X. Теоритические и методический осново воспитания дисциплинированности и культуру младших школьников в целостном учебно-воспитательном процессе. АДД. -Т.: 1993.
4. Вахрамов Q. O'smirlarning o'zligini anglash va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishning pedagogik omillari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissyertatsiyasi. 2006 yil. Toshkent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11239325>

O‘QUVCHILARNI KASB–HUNARGA YO‘NALTIRISH ISHLARIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI BILAN O‘TKAZILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Suyunova Shodiya Sayfullayevna

Koson tumani 90-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Suyunovashodiya1995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktablarga kasb-hunarga yo‘naltirish ishlariga zamonaviy yondashuv, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbiy bilimlarini oshirishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati, dars jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar, ularning turlari va qo‘llash tartibi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, didaktik o‘yin, dunyoqarash, aqliy faoliyat, o‘yin turlari, o‘yin bosqichlari, motiv, ishtiyoq, kasb, innovatsiya, integratsiya.

Аннотация. В данной статье изложены современные подходы к профориентационной работе школ, значение использования дидактических игр в повышении профессиональных знаний младших школьников, дидактические игры, используемые в процессе урока, их виды и порядок применения.

Ключевые слова: современное воспитание, дидактическая игра, мировоззрение, умственная деятельность, виды игр, этапы игры, мотив, страсть, призвание, новаторство, интеграция.

Annotation. This article describes modern approaches to the career guidance work of schools, the importance of using didactic games in improving the professional knowledge of younger schoolchildren, didactic games used in the lesson process, their types and order of application.

Keywords: modern education, didactic game, worldview, mental activity, types of games, stages of the game, motive, passion, vocation, innovation, integration.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev innovatsiya haqida

shunday deydilar; "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmaz ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz. Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo'lishi kerak". Bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonlarida bevosita o'quvchilarni ilm olish bilan birgalikda ma'lum bir hunarning egasi hamda iqtidori va layoqati yetadigan kasbga yo'naltirish ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan kasb-hunarga yo'naltirish ishlari muntazam olib boriladi. Bu jarayon boshlang'ich sinfadayoq, ta'lim-tarbiya ishlari bilan uzviy ravishda olib borilsa, anglanganlik darajasi yuqori bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim jarayoni davlatimizning ta'lim-tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichidir. Uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan, obyektiv olam haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish hamda boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondoshuvlar bilan boyitishdan iborat. Bu yangilanish bugungi kun boshlang'ich sinf o'quvchilari oldiga bir qator vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash istagi va ko'nikmalarini shakllantirishda dars jarayonida o'qitishning samarali usullaridan, pedagogikadagi yangi o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarda bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish kabi masalalar hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Bilish faoliyatiga bo'lgan ongli intilish shakllangandagina ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi ortadi. Agar boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchida bilishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantira olmasa, yuqori sinflarga borgani sari o'quvchilarning bilishga bo'lgan intilishi susayadi. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf bitiruvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanish darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, o'quvchilarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish hamda ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Shu ma'noda, o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutqini rivojlantirishda interfaol usullar, didaktik o'yinlar, metodlardan dars mobaynida unumli foydalanish samarali natija beradi. Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rnini beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin

o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundur. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarda ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarining, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

Quyida ana shunday dars jarayonida foydalanilgan o'qitish usullaridan namunalar keltirish mumkin:

“Kim ko'p so'z biladi?” o'yini.

1-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ushbu o'yin o'quvchi yoshlarning nafaqat fikrlashi, balki so'z boyligini oshirishga hamda nutqining ravon shakllanishiga ham yordam beradi. O'yin qoidasiga ko'ra, ma'lum bir kasb tanlab olinasi va o'quvchi sh kasbga oid bir so'z aytsa, keyingi ishtirokchi shu so'zning oxirgi harfi bilan boshlangan boshqa so'zni aytadi va shu tariqa o'yin davom etadi.

Masalan: shifokorlik kasbi bo'lsa, bemor, ruchka, aql va hokoza. Agar o'quvchilardan qaysi biri to'xtab qolsa, safdan chiqadi. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, alohida mavzular berilsa, yanada yaxshi samara beradi.

“Gap tuz”

Ushbu o'yinni boshlang'ich 1- va 2-sinflarda qo'llash maqsadga muvofiq. Dastlab o'quvchilarni guruhlariga yoki qatorlarga bo'lish talab qilinadi.

Birinchi qator bitta so'zni aytadi.

Ikkinchi qator shu so'zdan gap tuzadi.

Uchinchi qator esa ana shu gapdan matn yoki hikoya yaratadi.

